

ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN 7-9 SINIF KAR O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL YOZMA NUTQINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

Abdullaeva Maftuna Muxitdinovna

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti, Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari kafedrasida inklyuziv o‘qituvchisi PhD, dotsent v.b.

Baxodirova Asila Baxodir qizi

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti, Maxsus pedagogika(Surdopedagogika) yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo‘lgan 7-9 sinf kar o‘quvchilarning mustaqil yozma nutqini rivojlantirishning ilmiy va nazariy asoslari tahlil qilinadi. Kar o‘quvchilarning yozma nutqini shakllantirish jarayonida psixologik, lingvistik va pedagogik yondashuvlarning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar, yozma nutq, kar o‘quvchilarning tafakkuri, lingvistik asoslar, psixologik asoslar, pedagogik texnologiyalar.*

Аннотация: *В данной статье анализируются научные и теоретические основы развития самостоятельной письменной речи учащихся 7-9 классов с нарушением слуха. Рассматривается значение психологических, лингвистических и педагогических подходов в процессе формирования письменной речи глухих учащихся.*

Ключевые слова: *Дети с нарушением слуха, письменная речь, мышление глухих учащихся, лингвистические основы, психологические основы, педагогические технологии.*

Annotation: *This article analyzes the scientific and theoretical foundations for developing the independent written speech of 7th-9th grade students with hearing impairments. It discusses the significance of psychological, linguistic, and pedagogical approaches in the process of forming the written speech of deaf students.*

Key words: *Children with hearing impairments, written speech, thinking of deaf students, linguistic foundations, psychological foundations, pedagogical technologies.*

Mamlakatimizda ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilib, oilada farzand tug‘ilganidan boshlab, voyaga yetguniga qadar uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishiga xizmat qiladigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratilmoqda. 2023-yil 30-aprel kuni referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ta‘lim olish huquqining yanada yorqinroq aks ettirilishi yuksak ahamiyat va ulkan ma‘no-mazmun kasb etmoqda. Zero, bugungi kundagi eng qimmat resurs hisoblanmish inson kapitalining yaratilishida ta‘lim tizimining o‘rni beqiyosdir.[7]

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan 7-9 sinf o‘quvchilarining mustaqil yozma nutqini rivojlantirish o‘quv jarayonining muhim qismidir. Bu jarayon bir nechta omillarga asoslanib, kompleks yondashuvni talab qiladi va ilmiy- nazariy asoslar, jumladan, lingvistika, psixologiya va pedagogikaga tayanadi. Kar bolalar maxsus maktablarida maktab o‘qituvchilari va

tarbiyachilarining barcha ishlari o'quvchilarning so'zli nutqini rivojlantirish va doimiy ravishda boyitishga qaratilgan, chunki o'quvchilarning aql-idroki va nutq rivojlanishida yozma nutq katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, mustaqil yozma insho yozish bo'yicha olib borilayotgan ishlar shu nuqtai nazardan juda muhimdir. O'quvchilar hayoti va faoliyati bilan bog'liq mavzular mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi va o'quvchilarning nutqini hayotda so'zli muloqotda va bilim olishda zarur bo'lgan so'zlar va nutq ifodalar bilan boyitadi. Yozma nutq bevosita muloqot holatidan tashqarida ishlatiladi. Uni o'zlashtirish orqali o'quvchi kitoblardan insoniyat tomonidan to'plangan bilimlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi, shuningdek, o'z fikrlarini ifodalash imkoniyatini ham qo'lga kiritadi.

Surdopedagogika yo'nalishidagi ilk ishlarda og'zaki va yozma nutq o'rtasida aniq chegara qo'yilmagan edi. Ammo o'sha paytda ham yozma nutqning bolalar aql-idrokini rivojlantirishdagi o'rni yuqori baholangan. V.I. Fleri o'z asarlarida yozma nutqni o'rgatish g'oyat muhimligini ta'kidlagan. U shunday yozadi: "So'z vosita sifatida yozuvga ustunlik berishi kerak, chunki yozuv nafaqat karlar uchun, balki odatiy tarbiya jarayonida ham har qanday ta'limning haqiqiy tilidir, va karlarni o'qitishning eng yaxshi metodini topish vazifasi esa ushbu uchta vositaning, ya'ni mimika, yozuv va so'zning birgalikda ishlatilishi va birlashishi orqali hal qilinadi, shunday qilib, o'quvchi bir vaqtning o'zida tushunish, yozish va gapirishni o'rganishi kerak" Bolaga bog'langan yozma nutqni o'rgatish — bu uning fikrlash jarayonlarini o'zgartirish, so'zli-mantiqiy fikrlashni o'rgatish demakdir.[2]Eshitish qobiliyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda turli bosqichlarda taniqli surdopedagoglar nutqni o'rgatishda eng muhim rolni bajaradigan nutq turini tanlashda har xil yondashuvlarni qo'llaganlar.

Italiyalik faylasuf, matematika va shifokor D. Kardano (1501-1576) sezgi organlarining faoliyatini o'rganar ekan, karlar bilan qiziqib, ularni ta'limga o'rgatish mumkinligini birinchi marta nazariy jihatdan asoslab bergan. D. Kardano karlikning aqlni rivojlantirishga to'sqinlik qilmasligiga va qobiliyatsizlikka olib keladigan hodisa emasligini aniqlagan. Kardano, shuningdek, karlar o'z rivojlanishida yuqori darajaga erishishlari mumkinligi haqida juda muhim fikrni bildirgan. Uning fikriga ko'ra, eshitish qobiliyati bo'lmagan o'quvchilarni o'rgatish faqat yozma nutq asosida amalga oshirilishi kerak, shunda kar "o'qish orqali eshitadi va yozish orqali gapiradi"Kardano eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda normal ishlaydigan sezgi a'zolaridan foydalanishni majburiy deb hisoblagan. Uning fikricha, kar kishilar uchun ko'rish eshitishni almashtirishi kerak. Shuning uchun, Kardano eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun yozma nutq eng tabiiy va tushunarli vosita deb hisoblagan. U kar o'quvchilarni yozma nutq asosida o'qitish tarafdori bo'lgan holda, birinchi bo'lib ta'limda ko'rgazmalilik — ya'ni eng muhim metodlardan biri sifatida — qo'llanishi kerakligini ilgari surgan.Kardanoning fikricha, predmet va uni ifodalovchi so'z o'quvchiga bir vaqtda yetkazilishi kerak. U ko'plab materiallarni batafsil o'rganar ekan, shunday qoidaga amal qilgan: "hamma narsaga e'tibor berish va tabiatda hech narsa tasodifan sodir bo'lmaydi deb hisoblash"[4]

Individual o'qitish tajribasi Kardanoning zamondoshi P. Bonnet tomonidan yozilgan "Unli tovushlar tabiati va kar kishini gapirishga o'rgatish san'ati haqida" (Madrid, 1620) nomli

qo'llanmada aks etgan. P. Bonnet bilimlarni ongli ravishda, mustaqil o'zlashtirishga katta e'tibor bergan. Uning birinchi didaktik tamoyili shuki: o'quvchi o'zlashtirayotgan bilimlarini ongli ravishda idrok qilishi kerak.

Agar kar bola uchun biror tushuncha ravshan bo'lishi kerak bo'lsa, Bonnet qarama-qarshi tushunchalarni solishtirish metodidan foydalanishni tavsiya qiladi. Bularning barchasi bilimlarni ongli o'zlashtirishni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ta'lim va tarbiyaning navbatdagi tamoyili – bu o'quvchining o'zi faol bo'lishi zarurligidir. Agar D. Kardano eshitmaydiganlarni o'qitishda yozma nutqdan aloqa, bilim va amaliy ko'nikmalarni yetkazish va o'zlashtirish vositasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiqligini tavsiya qilgan va asoslab bergan bo'lsa, Bonnet bundan ham olg'a yurdi: u metodik tizimga faqat yozma nutqni emas, balki nutqning boshqa turlarini ham kiritishni tavsiya qilgan.[1]

Angliyada kar bolalarni individual o'qitish tizimining vakili D. Uollis (1616–1707) ham Kardano singari yozma nutqni og'zaki nutqdan mustaqil ravishda tafakkur vositasi bo'la oladi deb hisoblagan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni aloqa va aqliy rivojlanish vositasi sifatida tilga o'rgatish vazifasini hal qilgan ekan, Uollis va uning hamkori Bulyuver yozma nutqni shakllantirish va ta'lim-tarbiyada qo'llash bo'yicha o'zlarining qarashlarini avvalgilarga qaraganda ancha izchil bayon qilganlar. Yozma nutqni aloqa vositasi sifatida nihoyatda qulay deb hisoblagan bo'lsa-da, Uollis o'qitish jarayonida daktilologiyaga (barmoqlar yordamida so'zlarni ifodalashga) katta o'rin bergan. U tomonidan yozilgan “Ingliz tili grammatikasi” (1653) asarida u, ma'lum tovushlarning artikulyatsiyasini ko'rsatish kar bolani gapirishga o'rgatish imkonini berishini ta'kidlaydi.

Kar bolaning aqliy rivojlanishida yozma nutqni egallash muhim ekani haqidagi fikrlar G.A. Gurtsevning qarashlarida ham rivojlanib, asoslab berilgan. Uning “Metodik va amaliy darslarning ensiklopedik kursi” asarida kar bolalar yozma nutqni egallash orqali katta foyda olishi ko'rsatilgan. Masalan, G.A. Gurtsev quyidagi fikrni asoslab bergan: “Rasm tavsifi kar-soqovlarning e'tiboriga nihoyatda kuchli ta'sir qiladi, ularning tushunishini faollashtiradi va ularni tilimizning shakllari bilan tanishtiradi. Ular har doim bunday tavsiflarni mamnuniyat bilan o'qiydilar, chunki unda gap ketayotgan narsani ko'rib turishadi” G.A. Gurtsevning fikrlari XX asr ilg'or pedagoglari ishlarida yanada rivoj topdi.[3] Pedagog I.A. Vasilyev bu g'oyalarni o'z amaliy faoliyatida amalga oshirgan. U keltirayotgan masalaga oid muhim yutuqlardan biri – eshitmaydigan bolalarda nutqning bog'liqligi va izchilligiga erishish vazifasini surdopedagoglar oldiga asosli tarzda qo'yganidir. Ayniqsa, Vasilyevning rasmlar asosida insho yozish mashqlarini o'tkazish bo'yicha tavsiyalari bugungi kunda ham dolzarbdir, chunki insho – tafakkur va nutqning o'zaro ta'sirida yuzaga keladigan natijadir. U bu mashqlarning ahamiyatini ta'kidlab, eshitmaydigan bolani mustaqil ravishda hayotdagi vaziyatlarni izchil bayon qilishga tayyorlashda ulkan ahamiyat kasb etishini ko'rsatgan: “Kar-soqov bola rasmlarni tasvirlashni o'rgansa, hayotdagi holatlar, voqealar, hodisalarni qanday tasvirlash mumkinligini ham tushunadi”. [5]

Yozma nutq rivojlanishining og'zaki nutqdan farqli jihatlari haqidagi masalani birinchi bo'lib R.M. Boskis “Kar-soqov bolaning so'zlashuv nutqini rivojlantirish haqida” (1939) nomli kitobida ko'targan. Bu o'ziga xoslik, avvalo, so'zlar, grammatik shakllar va gap qurilishining farqliligida namoyon bo'ladi.

Surdopedagogikada L.S. Vygotskiyning tadqiqotlari katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular kar bolaning nutqiy rivojlanishidagi o‘ziga xosliklarni, ayniqsa, ona tiliga o‘rgatishda yozma nutqning rolini chuqurroq tushunishga yordam berdi.

“Tafakkur va nutq” nomli monografiyasida Vygotskiy yozma nutqni tafakkurni rivojlantiruvchi vosita sifatida tavsiflaydi. U shunday yozadi: “Yozma nutq, hattoki minimal darajada rivojlanishi uchun ham yuqori darajadagi mavhumlikni talab qiladi”. Bola so‘zlardan emas, balki tasavvurlardan foydalanishi lozim, shuning uchun uning yozma nutqi og‘zaki nutqdan xuddi “mavhum tafakkur ko‘rgazmali tafakkurdan farqlangani”dek farq qiladi. Aynan mana shu mavhumlik bolalarga yozuvni egallashda eng katta qiyinchilikni tug‘diradi. L.S. Vygotskiy yozma nutqni “nutqning algebrasi” deb bejizga atamagan: algebra qanday tafakkurni qayta qurib, uni yuqori bosqichga olib chiqsa, yozma nutq ham bolalar tafakkurini aynan shunday rivojlantiradi. Yozma nutqni o‘zlashtirish jarayonida bolaning tafakkuri yanada yuqori bosqichga ko‘tariladi, u so‘zlar bilan fikrlay boshlaydi, mavhumlashtiradi va asta-sekin ta’lim natijasida ko‘rgazmali-obrazli tafakkurdan so‘zli-mantiqiy tafakkurga o‘tadi.

Kar bolalarning yozma nutqining o‘ziga xos rivojlanishi haqida L.S. Vygotskiy quyidagicha yozadi: «Kar-soqovlarni nutqqa o‘rgatishda eng katta xatolik shundaki, ularga avval og‘zaki, so‘ng yozma nutq o‘rgatiladi. Aslida esa, bu jarayon teskarisi bo‘lishi kerak: kar-soqov bola uchun asosiy nutq turi, birinchi darajadagi ramziy vosita yozma nutq bo‘lishi lozim. U o‘qish va yozishni qanday o‘rganishi kerak bo‘lsa, bizning bolalar og‘zaki nutqni qanday o‘rganishsa, xuddi shunday o‘rganishi kerak. Og‘zaki nutq esa kar bolaning yozilgan matnini o‘qishga asoslangan holda shakllanishi lozim. Shundagina yozma nutq kar bola uchun so‘z bilan fikrlashning asosiy vositasiga aylanadi. Agar kar bolaga yozma nutq, ya’ni faqat chiroyli yozish emas, balki fikrni yozma shaklda ifodalash o‘rgatilsa, biz uni shunday yuqori taraqqiyot bosqichlariga olib chiqa olamizki, bu bosqichlarga u boshqa odamlar bilan muloqot qilish orqali emas, faqat kitob o‘qish orqali erisha oladi»[6]

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Rossiyada kar maktab o‘quvchilarining yozma nutqini rivojlantirish muammosiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy-pedagogik tadqiqotlar nashr etildi, maxsus dasturlar va darsliklar yaratildi (R.M. Boskis, L.M. Bykova, A.M. Goldberg, S.A. ЗЫков, T.S. ЗЫКОВА, A.G. Zikeev, K.V. Komarov, I.V. Koltunenکو, M.I. Nikolaeva, L.P. Noskova, E.A. Malxasyan, A.F. Pongilskaya, J.I. Shif va boshqalar). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kar bolalarning maktab davri mobaynida yozma nutqni o‘zlashtirishda duch keladigan qiyinchiliklari, avvalo, ularning nutqiy rivojlanishi va tafakkur faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq (R.M. Boskis, A.M. Goldberg, S.A. ЗЫков, I.V. Koltunenکو, K.V. Komarov, E.A. Malxasyan va boshqalar).

Xulosa qilib aytganda, psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda yozma nutqni shakllantirishning asosi bu — so‘zli-mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdir. So‘z orqali muloqot jarayonida o‘quvchi nutqiy materialni taqqoslash, ajratib ko‘rsatish, umumlashirish, xulosa chiqarish va mulohaza yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Yozma nutq esa og‘zaki so‘zlashuv nutqiga asoslanadi. Kar bolalarda yozma nutqni shakllantirish muammosi qanchalik muvaffaqiyatli hal etilsa, ularning eshituvchi jamiyatga ijtimoiy moslashuvi shunchalik samarali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bonnet, P. (1620). “Unli tovushlar tabiati va kar kishini gapirishga o‘rgatish san’ati”. Madrid: Qo‘llanma.
2. Fleri, V.I. (XIX asr). “Yozma nutqni o‘rgatish: Muammolar va yondashuvlar”.
3. Gurtsev, G.A. (XX asr). “Kar bolalar uchun metodik va amaliy darslar”.
4. Kardano, D. (1501-1576). “Karlarni o‘rgatish va yozma nutqning roli”.
5. Vasilyev, I.A. (XX asr). “Kar bolalar uchun rasmlar asosida insho yozish mashqlari”.
6. Vygotskiy, L.S. (XX asr). “Tafakkur va nutq” nomli monografiyasi.
7. <https://parliament.gov.uz>